

V.E.Xatamov

O'rnatilgan tartibda ijro uchun

№1059

22 Avgust 2024

G'.Y.Xamrayev
Birinchil o'rinbosar





**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRINING
BUYRUG‘I**

**O‘qitish va bilimni baholashning yangi tartibini joriy etish bo‘yicha
o‘quv-treninglarni tashkil etish to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev huzurida 2024-yil 26-yanvar kuni Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi tizimidagi ta’lim muassasalarida o‘qitish sifatini yaxshilashga oid taqdimot davomida berilgan topshiriqlar bo‘yicha 7-sonli bayonida belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlash hamda o‘qitish va bilimni baholashning yangi tartibini amaliyotda to‘g‘ri joriy etish maqsadida **buyuraman:**

1. O‘qitish va bilimni baholashning yangi tartibi (keyingi o‘rinlarda – baholashning yangi tartibi) 2023-2024-o‘quv yilidan boshlab 500 ta umumiy o‘rta ta’lim maktablarida joriy etilganligi, 2024-2025-o‘quv yilidan boshlab qo‘shimcha 1 000 ta umumiy o‘rta ta’lim maktablarida joriy etilishi hamda mazkur maktablar uchun Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari agentligi huzuridagi Pedagogik mahorat va xalqaro baholash ilmiy-amaliy markazi (keyingi o‘rinlarda – Markaz) tomonidan “Loyihaga asoslangan ta’lim” metodik qo‘llanmasi yaratilganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Baholashning yangi tartibi joriy etilgan (etilayotgan) umumiy o‘rta ta’lim maktablarining rahbar va pedagog xodimlari uchun yangi baholash tartibini to‘g‘ri joriy etish bo‘yicha o‘quv-treninglari (keyingi o‘rinlarda – o‘quv-treninglar) tashkil etilsin.

3. Quyidagilar:

O‘qitish va bilimni baholashning yangi tartibi joriy etilgan (etilayotgan) umumiy o‘rta ta’lim maktablarining rahbar va pedagog xodimlari uchun o‘quv-treninglar tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha ishchi guruh (keyingi o‘rinlarda – Ishchi guruh) tarkibi 1-ilovaga muvofiq;

O'qitish va bilimni baholashning yangi tartibi joriy etilgan (etilayotgan) umumiy o'rta ta'lim maktablarining rahbar va pedagog xodimlari uchun ishlab chiqilgan o'quv-treninglar dasturi 2-ilovaga muvofiq;

O'qitish va bilimni baholashning yangi tartibi joriy etilgan (etilayotgan) umumiy o'rta ta'lim maktablarining rahbar va pedagog xodimlari uchun o'quv-treninglar tashkil etish va o'tkazish bo'yicha ishchi guruhning hududlarda o'quv-trening o'tkazish grafigi 3-ilovaga muvofiq;

Mezonlarga asoslangan baholash tizimini umumiy o'rta ta'lim maktablariga joriy etish bo'yicha tartib 4-ilovaga muvofiq;

O'qitish va bilimni baholashning yangi tartibi joriy etilgan (etilayotgan) umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun "Loyihaga asoslangan ta'lim" metodik qo'llanmasini chop etish bo'yicha texnik topshiriq 5-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligi (A.Ubbiyev) joriy yilning 21-avgust kuniga qadar Agentlik tasarrufidagi ixtisoslashtirilgan maktablarni baholashning yangi tartibi joriy etilgan (etilayotgan) umumiy o'rta ta'lim maktablariga biriktirish bo'yicha takliflar ishlab chiqsin hamda vazirlikka kiritсин.

5. Markaz (D.Davidova):

mazkur buyruqning 1-ilovasi bilan tasdiqlangan Ishchi guruh faoliyatini muvofiqlashtirsin;

o'quv-trening natijalari bo'yicha hisobotlarni Ta'lim sifatini baholash va monitoring qilish boshqarmasiga taqdim etsin.

6. Ta'lim sifatini baholash va monitoring qilish boshqarmasi (O.Zokirov)ga:

o'quv-trening natijalari bo'yicha taqdim etilgan hisobotlarni tahlil etish hamda yakuniy ma'lumotlarni rahbariyatga kiritish;

Markaz bilan birgalikda baholashning yangi tartibini amaliyotda to'g'ri joriy etish bo'yicha biriktirilgan maktablardan jalb etilgan rahbar xodimlarini (direktor, direktorning o'quv ishlari hamda ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha o'rinbosarlari, maktab maslahatchisi) har chorakda rag'batlantirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish va rahbariyatga kiritish vazifalari yuklatilsin.

7. Davlat xaridlarini tashkil etish bo'limi (J.Mannanov) mazkur buyruqning 5-ilovasi bilan tasdiqlangan texnik topshiriqqa asosan metodik qo'llanmani 1 500 nusxada chop etish bo'yicha o'rnatilgan tartibda davlat xaridlarini amalga oshirsin.

Bunda, metodik qo'llanmalarni xarid qilish bilan bog'liq sarf-xarajatlar joriy yilda vazirlikning markazlashgan xarajatlar smetasida umumiy o'rta ta'lim muassasalari reytingini aniqlash jarayonini tashkil etish uchun rejalashtirilgan mablag'larning iqtisod qilingan qismi hisobidan amalga oshirilishi inobatga olinsin.

8. Moliya-iqtisod departamenti (I.Siradjev) zarur hollarda ushbu tadbirlarni amalga oshirish uchun Ichki audit va moliyaviy nazorat departamenti xulosasini olgan holda markazlashgan xarajatlar smetasiga tegishli o'zgartirishlar kiritish choralarini ko'rsin.

9. Buxgalteriya hisobi va hisoboti boshqarmasi (F.Jamuratova)ga tuzilgan shartnomalarni G'aznachilik xizmati qo'mitasi ro'yxatidan o'tkazish hamda o'rnatilgan tartibda to'lovlarni amalga oshirish vazifalari yuklatilsin.

10. Qoraqalpog'iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'lim vazirligi, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmalari boshliqlariga:

o'quv-treninglarda ishtirok etadigan qatnashchilar sonini inobatga olgan holda o'quv-trening o'tkaziladigan manzillarni belgilash;

o'quv-trening dasturiga mos ravishda banner o'rnatish hamda zaruriy kanselyariya mahsulotlari, o'quv-trening o'tkaziladigan auditoriyalarni yetarli miqdorda stol-stul, yuqori tezlikdagi sifatli internet aloqasi, elektron doska hamda videokuzatuv uskunalari bilan ta'minlash;

o'quv-trening o'tkaziladigan kunlari auditoriyada yorug'lik, xona haroratining mo'tadilligi, elektr ta'minoti va internet aloqasi tizimlarining muntazam ishlashi choralarini ko'rish;

o'quv-treningda ishtirok etadigan qatnashchilarni belgilangan vaqtlarda ishtirok etishlarini ta'minlash vazifalari yuklatilsin.

11. Mazkur buyruqning 1-ilovasi bilan tasdiqlangan Ishchi guruh a'zolarining xizmat safari bilan bog'liq xarajatlari asosiy ish joyidan qoplanishi belgilansin.

12. Maktabgacha va maktab ta'limi vazirining 2023-yil 16-avgustdagi 248-son buyrug'i bilan tasdiqlangan ilova o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

13. Axborot xizmati (D.Sobirova) o'quv-trening jarayonlarini vazirlikning rasmiy veb-sayti va ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalari hamda ommaviy axborot vositalarida keng yoritilishini ta'minlasin.

14. Devonxona (H.Raximbayeva) ushbu buyruqni bir kun muddatda tegishli tarkibiy bo'linmalar hamda hududiy maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmalariga yetkazilishini ta'minlasin.

15. Mazkur buyruqning ijrosini nazorat qilish vazir o'rinbosari S.Radjabov zimmasiga yuklatilsin.

Vazir



X.Umarova

Toshkent sh.,
2024-yil " 7 "-avgust,
250-son